

**Sultonov Baxtiyor Samadovich**  
**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**  
**“Jismoniy tarbiya” kafedrasи o‘qituvchisi**  
**Email: sultonov2024@mail.ru**

# **BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISH – SOG'LOM TURMUSH VA MILLAT SALOMATLIGINING GAROVI**

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada yosh avlodni jismonan sog‘lom va ma’naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda bolalar sportiga bo‘lgan e’tibor va ularni saralash muammolari haqida baxs yuritilgan. Shuningdek, jamiyatda yoshlarni sportga bo‘lgan qobiliyat va qiziqishlarini oshirish, sportni ommalashtirish, yoshlar va bolalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yo‘llari va omillariga oid fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy tarbiya, sport, bolalar sporti, saralash, sport maktablari, murabbiy, “sportogramma”, aholi salomatligi, zamonaviy sport, shug‘ullanish, xalqaro sport, musobaqa, ommaviy sport, sog‘lom avlod, millat salomatligi, sog‘lom turmush tarzi.

# **РАЗВИТИЕ ДЕТСКОГО СПОРТА – ГАРАНТИЯ ЗДОРОВОЙ ЖИЗНИ И ЗДОРОВЬЯ НАЦИИ**

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассматривается значение детского спорта и проблемы его выбора в воспитании подрастающего поколения физически здоровой и духовно зрелой личностью. Также приводятся комментарии о путях и факторах повышения способностей и интереса молодежи к спорту, популяризации спорта, формирования здорового образа жизни среди молодежи и детей.

**Ключевые слова:** Физическое воспитание, спорт, детский спорт, квалификация, спортивные школы, тренер, «спортграмма», здравоохранение, современный спорт, физкультура, международный спорт, соревнования, массовый спорт, здоровое поколение, здоровье нации, здоровый образ жизни.

Sport nafaqat aholi salomatligini mustahkamlaydi, balki sog'lom avlodni tarbiyalashning asosiy mezonlaridan biri sanaladi. Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom, jismonan baquvvat, ruhan tetik va ma'nani yetuk qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi yillar yurtimizda sport sohasiga bo'lgan e'tibor yana kuchayib, bolalar sportini rivojlantirish, yosh avlodning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Zero, yoshlarning sog'lom bo'lishi, avvalo, ularning sport bilan shug'ullanishlari bilan uzviylik kasb etadi. Albatta, bunday natijalar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Bu mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilayotgani samarasidir.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida bu boradagi ishlar ko‘lamini kengaytirish maqsadida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangani e’tiborga molik. So‘nggi yillarda yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk komil inson qilib tarbiyalash vazifasi mamlakatiz ijtimoiy rivojlanishidagi asosiy e’tibordagi jarayon sifatida nazariy va amaliy vazifalar belgilandi. Bunga muvofiq yoshlar sportiga bo‘lgan e’tibor va bolalar sportidagi iqtidor va malakalarni saralash nazariyasining yuzaga chiqarishga alohida urg‘u berilmoqda. Bolalarni sportga saralash nazariyasining boshlanish davri 60-yillar o‘rtalarida Rossiya va chet mamlakatlarda boshlanganligiga qaramasdan bugungi kunda eng dolzarb muammolar qatorida o‘rin olgan. Iqtidorli bolalarni sportga saralash muammolari doimiy izlanishi orqali mukammallashtirish va davomiy tadqiqotlar

olib borishni taqazo etadi Sport maktablariga bolalarni saralash, bo‘lajak natijalarni prognozlashtirish metodlarining ilmiy asoslanganligi, bolalar sportidan boshlab yuqori natijalar sportiga qadar muhim va ajralmas bosqich sanaladi[1].

Bolalarning sportdagi boshlang‘ich natijalaridan qoniqish hissi-sport turini to‘g‘ri tanlanganligi bilan belgilanadi va bu jarayon albatta yuksak natija beradi. Shuning uchun sport turini to‘g‘ri tanlash qayta - qayta sinash orqali emas, balki o‘qituvchi, sport murabbiylari kabi mutaxassislar va keng jamoatchilik tomonidan boshqariladigan jarayondir. Bolalarni saralash va sport orientatsiya masalarida “sportogramma” orqali amalga oshiriladi (alohida sport turining organizmga ko‘rsatadigan talablari, iqtidor va qobiliyat). Mamlakatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, har tomonlama yetuk va barkamol shaxslarni voyaga yetkazishning huquqiy asoslari yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (1992), “Sog‘lom avlod uchun ordenini ta’sis qilish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (1993), “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasini tuzish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (2002) kabilar respublikamizda yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish va ularni sporga qiziqtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillikning ilk yillardan bu sohada mukammal huquqiy baza yaratilib, o‘quvchilarni ta’limning ilk bo‘g‘inlaridan jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasida zamonaviy tizim shakllantirildi. Sog‘lom avlodni tarbiyalashga berilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlikning yana bir yorqin namunasi sifatida 2000-yilning “Sog‘lom avlod yili”, 2001-yilning “Onalar va bolalar yili”, 2008- yilning “Yoshlar yili”, 2010-yilning “Barkamol avlod yili”, 2014-yilning “Sog‘lom bola yili”, 2016 - Cog‘lom ona va bola yili, 2021 - Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili deb e’lon qilinganligini alohida aytib o’tish kerak.

Yurtimizda sportga bo‘lgan e’tibor, jumladan bolalar sportini rivojlantirish borasida davlat dasturlarining ishlab chiqilganligi mamlakatimizda sog‘lom avlodni voyaga yetkazishni yangi bosqichga ko‘tarish bilan birga mamlakatni butun dunyoga tanitish hamda jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga erishilmoqda. Birgina 2013- yilning o‘zida 113 ta sport inshooti va suzish havzasi, 55 ta bolalar musiqa va san’at maktabi qurilib foydalanishga topshirilgan. Ushbu obyektlarning 132 tasi qishloq joylarida ishga tushirilgan. Barcha sport majmualari zamonaviy sport inventarlari va malakali murabbiylar bilan ta’milnayotganligi tufayli ularning qamrovi tobora kengayib bormoqda. Bugun mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan sport majmularida har yili yangidan – yangi iste’dodlar kashf qilinayotir [2]. Ularning xalqaro maydonlarda o‘z qobilyatini namoyon etishi uchun ham keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Sport inshootlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va yoshlarni ommaviy sportga jalb etish doimiy e’tiborda bo‘lib, ana shu maqsadda yurtimizning turli hududlarida ko‘plab sport musobaqlari tashkil etilishi bejis emas. Buning natijasida eng chekka qishloqlarda ham aholi orasidan sport bilan shug‘ullanish va ularning xalqaro sport musobaqlarida ishtiroti amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda jismoniy tabiya va sport sohasidagi islohotlar natijasida keng ko‘lamli ishlar yoshlarning jahon sport arenalarida ulkan yutuqlarga erishishida poydevor bo‘lmoqda. Masalan, 2014-yilda o‘quvchilarimiz xorijiy mamlakatlarda bo‘lib o‘tgan nufuzli musobaqlarda 391 medalni qo‘lga kiritgani buning dalilidir. Buning uchun sport harakati ommaviyligiga katta ahamiyat berish, jismoniy tarbiyani rivojlantirish yoshlarni irodali sifatlarini chiniqtirish, ommaviy sportning jamiyatimiz hayotidagi rolini kuchaytirish, shuningdek xalqaro musobaqlarda sportchilarimiz yutuqlari salmog‘ini oshirishga erishish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi [3]. Shunday ekan, Sog‘lom avlod, barkamol vorislarni tarbiyalashda sport va ma’naviyat uzviylik, hamohanglik kasb etishi ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Ularni bir-biridan ajratmaslik, ayro holatda singdirmaslik kerak degan fikirdamiz. Yuqorida fikr-mulohazalardan kelib chiqib, sog‘lom bola tarbiyasida sport va ma’naviyat masalalarini takomillashtirish, bu borada ota - onalar, mahalla, makkab va sport turlari bo‘yicha murabbiylar hamkorligi yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Respublikamizda ilgari surilayotgan sog‘lom bola, har tomonlama barkamol avlod tarbiyalash masalasi uchun barcha birdek mas’uldir [4]. Shu sababli yoshlar

tarbiyasida jamiyatimiz aholisining barcha qatlamlarini keng jalb qilish kerakligini alohida aytib o'tmoqchimiz. Demak, sog'lom bola tarbiyasida sport va ma'naviyatni izchil, uzviy tarzda olib borish, ushbu vositalar imkoniyatlaridan to'la foydalanish Vatanimiz buyuk kelajagini qurishda o'z samarasini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha muayyan ishlar qilinmoqda. Bularning barchasi yosh avlodning har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lishi, yoshlar va bolalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni. (2002 y. 24oktyabr'). Sport. –Toshkent, 2002. No 80. 30 oktyabr.
2. Allamuratov Sh.I. Fiziologiya va sport fiziologiyasi. Darslik. Toshkent, «Turon-Iqbol», 2010. - 216 bet.
3. Abdumalikov R. Sog'lom avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sport. O'quv– uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2003.
4. Шарипова Д.Д. и др. Проблемы здоровья учащейся молодежи. - Т.: “Fan va texnologiya”, 2014. 132 с.